

DAVLATLARNING XALQARO TASHKILOTLAR HUZURIDAGI DOIMIY
VAKOLATXONALARINING HUQUQIY MAQOMILEGAL STATUS OF PERMANENT MISSIONS OF STATES TO INTERNATIONAL
ORGANIZATIONSПРАВОВОЙ СТАТУС ПОСТОЯННЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВ ГОСУДАРСТВ
ПРИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Rahmatillayev Elnur Anvar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti,

e-mail: elnurrakhmatillayev@gmail.com

Tel.: +998915004151

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19723370>

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatlarning xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalarining xalqaro-huquqiy maqomi keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqot 1975-yilgi Vena konvensiyasi, 1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar negizida doimiy vakolatxonalarining huquqiy tabiatini, funksional vakolatlarini, immunitet va imtiyozlar tizimini, akkreditatsiya tartibini hamda shtab-kvartira shartnomalarining huquqiy ahamiyatini qamrab oladi. Shuningdek, doimiy vakolatxonalar faoliyatida yuzaga keladigan amaliy muammolar, 1975-yilgi Vena konvensiyasining kuchga kirmaganligidan kelib chiqadigan huquqiy bo'shliqlar va ularni xalqaro huquq doirasida hal etish istiqbolli yo'llari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarini faoliyatining milliy-huquqiy asosiga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. doimiy vakolatxona, xalqaro tashkilot, Vena konvensiyasi, huquqiy maqom, immunitet va imtiyozlar, akkreditatsiya, shtab-kvartira shartnomasi, diplomatik missiya, xalqaro huquq, funksional immunitet, kuzatuvchi missiya, ko'p tomonlama diplomatiya.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ международно-правового статуса постоянных представительств государств при международных организациях. Исследование охватывает правовую природу постоянных представительств, их функциональные полномочия, систему иммунитетов и привилегий, порядок аккредитации, а также правовое значение соглашений о штаб-квартире на основе Венской конвенции 1975 года, Венской конвенции о дипломатических сношениях 1961 года и других ключевых международных документов. Рассматриваются практические проблемы, возникающие в деятельности постоянных представительств, правовые пробелы, обусловленные тем, что Венская конвенция 1975 года ещё не вступила в силу, а также перспективные пути их решения в рамках международного права.

Ключевые слова. постоянное представительство, международная организация, Венская конвенция, правовой статус, иммунитеты и привилегии, аккредитация, соглашение о штаб-квартире, дипломатическая миссия, международное право, функциональный иммунитет, миссия наблюдателя, многосторонняя дипломатия.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the international legal status of permanent missions of states to international organizations. Based on the 1975 Vienna

Convention, the 1961 Vienna Convention on Diplomatic Relations, and other key international instruments, the study examines the legal nature, functional mandates, system of immunities and privileges, accreditation procedures, and the legal significance of headquarters agreements. Practical problems arising in the activities of permanent missions, legal gaps resulting from the 1975 Vienna Convention not yet being in force, and promising ways to address them within the framework of international law are also considered. Special attention is paid to the national legal basis of the Republic of Uzbekistan's missions to international organizations.

Keywords. permanent mission, international organization, Vienna Convention, legal status, immunities and privileges, accreditation, headquarters agreement, diplomatic mission, international law, functional immunity, observer mission, multilateral diplomacy.

Kirish. Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlarning tutgan o'rnini tobora kengayib bormoqda. Ikkinchi jahon urushidan so'ng tashkil topgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, so'ngra uning ixtisoslashgan muassasalari, mintaqaviy va sohaviy xalqaro tashkilotlarning soni va vakolat doirasining oshishi bilan birga davlatlarning bu tashkilotlar bilan doimiy aloqalar o'rnatish ehtiyoji ham keskin kuchaydi. Ayni shu zaruriyat doimiy vakolatxona institutining shakllanishiga asos bo'ldi.

Doimiy vakolatxona – davlatning xalqaro tashkilot huzurida uzluksiz faoliyat yuritadigan rasmiy vakilligi bo'lib, u ikki tomonlama elchixonadan tubdan farq qiladi. Ikki tomonlama elchixonaga bitta qabul qiluvchi davlat bilan munosabatlarni boshqarsa, doimiy vakolatxona xalqaro tashkilotning barcha a'zo davlatlari, uning organlar tizimi va kotibiyati bilan ko'p tomonlama muloqotni bir vaqtda olib boradi. Bu esa vakolatxona xodimlaridan xalqaro huquq, diplomatiya va ko'p tomonlama muzokaralar sohasida keng bilim hamda malakani talab etadi.

Doimiy vakolatxonalar institutining huquqiy tartibga solinishi uzoq tarixiy jarayonning mahsuli hisoblanadi. Dastlab davlatlar xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni vaqtinchalik delegatsiyalar orqali olib borganlar. XX asrning o'rtalarida esa doimiy vakolatxona sifatida ixtisoslashgan muassasa shaklida mustahkamlana boshladi. 1975-yilgi Vena konvensiyasigacha bu soha asosan ikki tomonlama diplomatik huquq normalari va tartibga solinmagan odatiy xalqaro huquq orqali boshqarilgan. Konvensiyaning qabul qilinishi sohani kodifikatsiya qilishda muhim qadam bo'ldi, biroq hali universal ratifikatsiyaga erishmagan bo'lsada, uning normalari xalqaro amaliyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi va ularning huzurida doimiy vakolatxonalar ochdi. Jumladan, Nyu-Yorkdagi BMT bosh qarorgohida, Jenevada, shuningdek MDH, ShHT va boshqa tashkilotlar huzurida o'zbek vakolatxonalarini faoliyat yuritmoqda. Mamlakat tashqi siyosatining faollashuvi va xalqaro hamkorlikning kengayishi bu institutni milliy huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ham chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi. Doimiy vakolatxonalarning huquqiy maqomiga oid xalqaro ilmiy adabiyotlar anchagina keng bo'lib, ushbu soha bir necha avlod tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Dembinski (1988) o'zining "The Modern Law of Diplomacy: External Missions of States and International Organizations" asarida doimiy vakolatxonalarni xalqaro tashkilotlar huzuridagi tashqi missiyalarning mustaqil va o'ziga xos turi sifatida tavsiflab, ularning ikki tomonlama diplomatik vakolatxonalardan tubdan farqlashini ko'rsatib beradi. Xususan, muallif

ko'p tomonlama muhitda faoliyat yuritish, turli a'zo davlatlar bilan bir vaqtda aloqa o'rnatish va tashkilotning institutsional mexanizmlarida bevosita ishtirok etishni doimiy vakolatxonalarining asosiy xususiyatlari sifatida belgilaydi [1].

Denza (2016) "Diplomatic Law: Commentary on the Vienna Convention on Diplomatic Relations" asarida 1961-yilgi Vena konvensiyasini sharhlash orqali immunitet va imtiyozlar tizimining nazariy asoslarini batafsil tahlil qilgan. Muallif "funktional immunitet" konsepsiyasini rivojlantirib, diplomatik immunitetlar shaxsiy manfaatni emas, balki funksiyalarni samarali amalga oshirishni ta'minlash maqsadida berilishini isbotlaydi. Bu tamoyil xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalariga nisbatan yanada kuchliroq namoyon bo'ladi, chunki bunday vakolatxonalar qabul qiluvchi davlat emas, balki butun xalqaro tashkilot bilan munosabatda bo'ladi [2].

Crawford (2019) "Brownlie's Principles of Public International Law" asarida xalqaro tashkilotlarning huquqiy shaxsini va ular bilan munosabatlarda davlatlarning vakolat doirasini tizimli tahlil qiladi. Crawford ta'kidlashicha, doimiy vakolatxonalar nafaqat davlatning vakillik funksiyasini, balki xalqaro tashkilotning qaror qabul qilish jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish imkoniyatini ham beradi. Ushbu fikr xalqaro tashkilotlarning zamonaviy rolini to'g'ri baholash uchun muhimdir [3]. Shaw (2021) esa "International Law" asarida immunitetlarning cheklangan va mutlaq ekanligi masalasidagi bahsni ko'rib chiqib, zamonaviy xalqaro huquqda funktsional immunitet yondashuvining ustunligini asoslab beradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi bir necha ilmiy metod qo'llaniladi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali 1961-yilgi va 1975-yilgi Vena konvensiyalarining tegishli normalari, shuningdek turli xalqaro tashkilotlar – BMT, YUNESKO, ShHT, MDH bilan tuzilgan shtab-kvartira shartnomalarining mazmuni taqqoslanadi. Bu taqqoslash ushbu hujjatlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlab, huquqiy me'yorlarning xilma-xilligini ko'rsatib beradi.

Tarixiy-huquqiy metod doimiy vakolatxonalar institutining XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmidagi shakllanish bosqichlarini, 1975-yilgi Vena konvensiyasining Xalqaro huquq komissiyasida ishlab chiqilish jarayonini hamda bugungi kungi amaliyot bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. Normativ tahlil metodi esa 1975-yilgi Vena konvensiyasining 1, 6, 21, 22, 36-moddalarini, 1961-yilgi Vena konvensiyasining tegishli qoidalarini va O'zbekiston milliy qonunchiligini izchil ko'rib chiqish imkonini beradi. Tizimli tahlil metodi barcha ko'rib chiqilayotgan huquqiy institutlarni xalqaro huquqning umumiy tizimi doirasida, o'zaro bog'liqligi va ta'sir darajasini hisobga olgan holda baholashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Doimiy vakolatxona institutining huquqiy tavsifini uning ta'rifidan boshlash maqsadga muvofiqdir. 1975-yilgi Vena konvensiyasining 1-moddasiga ko'ra, "doimiy vakolatxona" deganda davlatning xalqaro tashkilot huzurida doimiy asosda yuboradigan missiyasi tushuniladi. Bu ta'rif bir qator muhim elementlarni o'z ichiga oladi: birinchisi – doimiylik xususiyati, ya'ni vakolatxona vaqtinchalik yoki maxsus topshiriq uchun emas, balki muayyan muddatsiz faoliyat yuritadi; ikkinchisi – xalqaro tashkilot huzuridagi ixtisoslashgan maqom, ya'ni vakolatxona biror davlat emas, balki xalqaro tashkilot oldida akkreditatsiya qilinadi [4].

Shu bilan birga, konvensiya "kuzatuvchi doimiy missiya" tushunchasini ham alohida belgilaydi. Bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatning mazkur tashkilot huzuridagi doimiy vakilligi. Kuzatuvchi missiya a'zo davlatlarning doimiy vakolatxonasiga qaraganda

cheklangan huquqlarga ega: u tashkilot organlarining yig'ilishlarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etishi mumkin, ammo muzokarlarda so'z olish va o'z pozitsiyasini bildirish imkoniyatiga ega. Bunday tafovut xalqaro tashkilotlarda a'zolik maqomining huquqiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Doimiy vakolatxonalarining asosiy funksiyalari 1975-yilgi Vena konvensiyasining 6-moddasida batafsil ko'rsatilgan. Mazkur modda vakolatxonalariga quyidagi vazifalarni yuklaydi: yuboruvchi davlatni xalqaro tashkilotda vakil qilish; yuboruvchi davlat va fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish; xalqaro tashkilot bilan muzokarlarda ishtirok etish; xalqaro tashkilot faoliyatini kuzatish va o'z hukumatiga axborot berish; tashkilot doirasidagi faoliyatda hamkorlikni ta'minlash. Ushbu funksiyalar ko'lamiga ko'ra 1961-yilgi Vena konvensiyasida belgilangan ikki tomonlama diplomatik vakolatxonalar funksiyalaridan sezilarli darajada kengdir, chunki ko'p tomonlama muhit vakolatxonadan yanada faolroq va keng qamrovli harakat qilishni talab etadi.

Immunitet va imtiyozlar masalasi doimiy vakolatxonalar huquqiy maqomining eng muhim va shu bilan birga eng bahsli tarkibiy qismi hisoblanadi. 1975-yilgi Vena konvensiyasi bir qator asosiy kafolatlarni mustahkamlaydi. Vakolatxona binolarining daxlsizligi – qabul qiluvchi davlat vakillarining vakolatxona binosiga faqat vakolatxona boshlig'ining roziligiga ko'ra kirishi mumkin. Arxivlar va hujjatlar daxlsizligi – vakolatxona arxivlari, hujjatlari va ular saqlanadigan joylar har qanday sharoitda daxlsiz hisoblanadi. Shaxsiy daxlsizlik – vakolatxona diplomatik xodimlari qabul qiluvchi davlatning yurisdiksiyasidan immunitetga ega. Soliq va bojxona imtiyozlari – vakolatxona va uning xodimlari belgilangan doirada soliq va bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

Shaw (2021) ta'kidlashicha, ushbu immunitetlar mutlaq xarakter kasb etmaydi, ular asosan funksional doirada amal qiladi. Ya'ni, immunitetlar vakolatxona xodimining rasmiy faoliyati bilan bog'liq harakatlarga nisbatan qo'llaniladi, bundan shaxsiy xatti-harakatlar esa bundan istisno bo'lishi mumkin. Bu tamoyil "ratione materiae" (vazifa doirasidagi immunitet) va "ratione personae" (shaxsiy immunitet) farqlash doktrinasi asosida tushuntiriladi. Amaliyotda ushbu chegara ko'pincha bahsli bo'lib, xalqaro tribunallar va milliy sudlar tomonidan turlicha talqin qilinadi [5].

Shtab-kvartira shartnomasi – xalqaro tashkilot bilan uning joylashgan davlati o'rtasida tuziluvchi ikki tomonlama shartnoma doimiy vakolatxonalar faoliyatini tartibga soluvchi ikkinchi asosiy hujjat sifatida namoyon bo'ladi. Bu shartnomalar xalqaro tashkilotning o'zi, uning binolari va xodimlariga nisbatan qo'llaniladigan immunitetlar, vakolatxonalar faoliyatiga oid maxsus qoidalar hamda nizolarni hal etish tartibini belgilaydi. Masalan, BMT bosh qarorgohining AQSh bilan 1947-yilda tuzgan shtab-kvartira shartnomasi, Xalqaro mehnat tashkilotining Shveysariya bilan tuzgan shartnomasi va ShHTning Xitoy bilan tuzgan shartnomasi bir-biridan mazmun jihatidan farqlanadi. Bu tafovut xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar maqomining universal standartlar asosida to'liq tartibga solinmaganligini ko'rsatadi.

Amalda doimiy vakolatxonalar huquqiy maqomini tartibga solishda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Birinchi va eng muhim muammo 1975-yilgi Vena konvensiyasining hali kuchga kirmaganligi. Konvensiya kuchga kirishi uchun kamida 35 ta davlatning ratifikatsiyasi talab etiladi, biroq hozirga qadar bu raqamga erishilmagan. Buning natijasida ko'pgina davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar odatiy xalqaro huquq normalari,

shtab-kvartira shartnomalar va 1961-yilgi Vena konvensiyasining qiyosan qo'llanilgan qoidalari asosida tartibga solinmoqda. Ikkinchi muammo, xalqaro tashkilotlarning turlichaligi tufayli vakolatxonalar maqomida katta farqlar mavjudligi. Uchinchi muammo, shtab-kvartira shartnomalari o'rtasidagi tafovutlar bo'lib, ular natijasida bir xil xalqaro maqomga ega davlatlar turli tashkilotlarda turli huquqiy rejimda faoliyat yuritishi kerak bo'ladi.

O'zbekistonda diplomatik xizmatni tartibga soluvchi milliy qonunchilik sifatida 1992-yilda qabul qilingan ikkita muhim qonun asosiy o'rinni egallaydi: "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi Qonun (649-XII-son, 03.07.1992-y.) hamda "O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to'g'risida"gi Qonun (650-XII-son, 03.07.1992-y.) va [6, 7]. Ushbu Qonunlar diplomatik xizmat tizimini, vakolatxona boshlig'i tayinlash tartibini va diplomatik daraja hamda martabalar tizimini belgilab beradi. Biroq, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarga oid maxsus normalar milliy qonunchilikda cheklangan bo'lib, bu boradagi tartib asosan xalqaro konvensiyalar, O'zbekiston ishtiroki bilan tuzilgan xalqaro shartnomalar va xalqaro tashkilotlarning ichki qoidalari orqali belgilanadi.

Doimiy vakolatxonalarning akkreditatsiya tartibi ham muhim huquqiy ahamiyatga ega. 1975-yilgi Vena konvensiyasiga muvofiq, vakolatxona boshlig'i akkreditatsiya maktubini xalqaro tashkilotning bosh ma'muriy organi yoki munosib mansabdor shaxsiga topshiradi. BMTda bu maktub BMT Bosh kotibiga topshiriladi. YUNESKO va boshqa ixtisoslashgan muassasalarda esa tegishli ijro rahbariga. Akkreditatsiya tartibi xalqaro tashkilotning yuridik shaxsligi va uning a'zo davlatlar bilan munosabatlarining rasmiy xususiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, akkreditatsiya maktubini topshirish marosimi xalqaro tashkilotda davlat tomonidan rasmiy ravishda tan olinishni anglatib, vakolatxonaga tashkilot doirasida to'laqonli faoliyat yuritish imkonini beradi.

Vakolatxona xodimlari tarkibi ham alohida tartibga solinadi. 1975-yilgi Vena konvensiyasiga ko'ra, vakolatxona xodimlari uch toifaga bo'linadi: diplomatik xodimlar (vakolatxona boshlig'i va diplomatik darajaga ega xodimlar), ma'muriy-texnik xodimlar va xizmat xodimlari. Har bir toifaga nisbatan immunitetlar va imtiyozlarning hajmi farqlanadi. Diplomatik xodimlar eng keng ko'lamdagi immunitetlardan foydalanadi, ma'muriy-texnik xodimlar esa cheklangan immunitetlarga ega bo'ladi. Ushbu farqlash vakolatxona faoliyatini tashkil etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki har bir xodim lavozimiga qarab turli huquqiy rejim qo'llaniladi.

Ko'p tomonlama diplomatiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, doimiy vakolatxona xalqaro tashkilotning turli organlarida – Bosh Assambleyada, kengashlarda, qo'mitalarda va ishchi guruhlarda bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishi zarur. Bu holat ikki tomonlama elchixonadan tubdan farq qiladi: elchixonada uchun bitta qabul qiluvchi davlat bilan munosabatlarni boshqarish etarli bo'lsa, doimiy vakolatxona o'nlab, ba'zan yuzlab davlatlarning vakillari bilan muzokaralar olib borishi, koalitsiya va ittifoqlar tuzishi hamda tashkilotning murakkab qaror qabul qilish jarayonlarida samarali ishtirok etishi lozim. Bu esa vakolatxona xodimlaridan yuqori malaka, keng qamrovli bilim va kuchli muzokarachi sifatlarini talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, davlatlarning xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari zamonaviy ko'p tomonlama diplomatiyaning hal

qiluvchi instrumentiga aylangan. Ularning huquqiy maqomi 1975-yilgi Vena konvensiyasi, shtab-kvartira shartnomalar tizimi, 1961-yilgi Vena konvensiyasining qiyosan qo'llaniladigan normalari va xalqaro tashkilotlarning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi. Doimiy vakolatxonalar davlatning xalqaro tashkilotdagi manfaatlarini ifoda etish, ko'p tomonlama muzokaralarda ishtirok etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va tashkilot qarorlariga ta'sir ko'rsatish funksiyalarini bajaradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ushbu institutning huquqiy tartibga solinishida bir qator hal etilmagan muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. 1975-yilgi Vena konvensiyasining universal ratifikatsiyaga erishmaganligi, shtab-kvartira shartnomalari mazmunidagi katta tafovutlar, funksional immunitetlarning talqinida yuzaga keluvchi bahslar va milliy qonunchilikda maxsus normalarning yetishmasligi eng dolzarb muammolar qatorida turadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, 1975-yilgi Vena konvensiyasini universallashtirish yo'lida xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirishi zarur. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi doirasida konvensiyani imzolagan, lekin hali ratifikatsiya qilmagan davlatlarni ratifikatsiyaga undash bo'yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Konvensiyaning kuchga kirishi xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar faoliyatida yagona standartni ta'minlaydi va huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi.

ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar tomonidan shtab-kvartira shartnomalari mazmunini bir-biriga yaqinlashtirish va minimal standartlar to'plamini ishlab chiqish tavsiya etiladi. BMT, ixtisoslashgan muassasalar va mintaqaviy tashkilotlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmi orqali namunaviy shtab-kvartira shartnomasi yaratilib, barcha tashkilotlar uchun umumiy asosiy kafolatlar belgilanishi mumkin edi. Bu holat vakolatxonalar maqomining turli tashkilotlarda turlicha bo'lishidan kelib chiquvchi noqulayliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalarga oid maxsus normalar kiritilishi lozim. Hozirda amaldagi "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to'g'risida"gi Qonunlar ikki tomonlama diplomatik vakolatxonalarga ko'proq mo'ljallangan. Xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan alohida qonun yoki mavjud qonunlarga maxsus bo'limlar qo'shish o'zbek vakolatxonalari aniq huquqiy kafolatlar beradi.

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirish zarur. Ko'p tomonlama diplomatiya ikki tomonlama diplomatiyadan tubdan farq qiladigan maxsus ko'nikma va bilimlarga tayanadi. Toshkent davlat yuridik universiteti hamda O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi akademiyasi doirasida ko'p tomonlama diplomatiya va xalqaro tashkilotlar huquqi bo'yicha ixtisoslashgan kurslar joriy etilishi bu yo'nalishda sezilarli natijalar berishi mumkin.

Umuman olganda, doimiy vakolatxonalar instituti global boshqaruv tizimida muhim halqa bo'lib, uning huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish xalqaro hamkorlik samaradorligini, davlatlar manfaatlarining himoyasini va xalqaro huquq ustuvorligini ta'minlashga bevosita

hissa qo'shadi. Mazkur tadqiqot o'zbek xalqaro huquq fanida ushbu sohaga bo'lgan ilmiy qiziqishni oshirishga va keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishiga umid qilinadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dembinski, L. The Modern Law of Diplomacy: External Missions of States and International Organizations. Dordrecht: Martinus Nijhoff / UNITAR, 1988.
2. Denza, E. Diplomatic Law: Commentary on the Vienna Convention on Diplomatic Relations. 4th nashr. – Oxford: Oxford University Press, 2016.
3. Crawford, J. Brownlie's Principles of Public International Law. 9th nashr. – Oxford: Oxford University Press, 2019.
4. Umumiy xarakterga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda davlatlar vakolatxonasi to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1975-yil 14-mart.
1. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/5_1_1975.pdf
5. Shaw, M.N. International Law. 9th nashr. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to'g'risida" Qonuni, 1992-yil 3-iyul, 650-XII-son. URL: <https://lex.uz/docs/-19189>
7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida" Qonuni, 1992-yil. URL: <https://lex.uz>
8. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1961-yil 18-aprel. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf